

## O'ZBEK VA NEMIS MAQOLLARINING GRAMMATIK VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI

O.S.Eshonqulov

SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi

O'zbek tilida maqollar alohida qatlamni tashkil etadi. O'zbek tilidagi ko'plab maqollar shunisi bilan farqlanadiki, ular bir yoki ikki frazeologik birlikdan iborat bo'la oladi, Bu esa mazkur guruh maqollarini o'ziga xos qilib, ularning ko'plab barqaror so'z birikmalaridan ajratib turadi. Maqollarning ko'pi murakkab strukturga ega bo'lib, ularning til egalari uchun tushunarli bo'lishiga xalaqit beradi. Qator holatlarda maqollar murakkab gap tiplarini ifodalaydi. Ko'p hollarda o'zbek maqollari nemis maqollaridan farqli o'laroq frazeologik birliklardan hosil bo'lgan bo'lib, ayrim frazeologik birliklar faqat shu maqollar tarkibidagina mavjud bo'lib, ulardan tashqarida ishlatilmaydi. Frazeologik birliklar komponent sifatida qatnashgan maqollarga quyidagilar misol bo'la oladi: *“Hasadgo'y hamisha baxtsiz bo'ladi”*, *Hasadgo'yni uyqu ham ovutolmaydi*, «Wer neidet, der leidet» – Kim hasad qilsa, shu azob chekadi. : *Bergani betiga qarama* hamda nemischa “Dem geschenkt Gaul sieht man nicht ins Maul” –“Sovg'a qilingan otning jag'iga qarmaydilar” maqollari bilan taqqoslang. Frazeologik birliklar gap-maqol tarkibida ayrim hollarda muayyan gap bo'lagi sifatida ham, boshqa bir holatlarda murakkab gap qismi vazifasidagi predikativ birlik sifatida ham namoyon bo'ladi. Qayd qilib o'tilganidek, o'zbek maqollari grammatik strukturasi bo'yicha gaplardan farq qilmaydi, garchi maqollardagi komponentlarning leksik uyg'unligi maqol obrazlilikining asosini tashkil etadi. Qayd qilish joizki, o'zbek tilshunosligida maqollarning strukturasi masalasi yetarlicha o'rganilmagan bo'lib. Bundan tashqari, avval qayd qilib o'tilganidek, maqollarning frazeologizmlar bilan solishtirilishi ham munozarali masaladir.

O'zbek tili maqollari tarkibining struktur tahlili shunday xulosaga kelish imkonini beradiki, o'zbek maqollari ritmik jihatidan turli-tumandir: ularda she'riyatda ma'lum bo'lgan deyarli barcha she'r o'lchov (vazn)lari uchraydi. Ular qofiyaga boy. Ko'pincha ularda she'rning yoki she'r parchasining oxirgi so'zlari qofiyalanadi. Oxiridagi, boshidagi va ichidagi qofiyalar bilan bir qatorda ko'plab maqollar tovush takrorlari, unlilar va undoshlar takrori, ularning o'zaro uyg'unlashuvi bilan mustahkamlangan. Masalan, bu holat quyidagi tipdagi maqollarda yaqqol sezilib turadi: *Boyning gapi o'ng, yo'qning gapi to'ng*.

Shuningdek, o'zbek maqollarining ayrim struktur xususiyatlari qayd qilinadi: odatdagi gapga so'zlar tartibining buzilishi umuman xos emas va uning ichki mazmuniga ta'sir qilmaydi; maqolda so'zlar tartibining buzilishi esa undagi emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlikning susayishiga, obrazlilikning kamayishiga olib keladi. Ko'p hollarda murakkab so'z birikmasining qismlari o'rnini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Bu holat o'zbek tilidagi quyidagi eski maqolda ham ko'rinib turibdi. *Ko'rgan kuning unutma, xom chorig'ingni qurutma*.

Uslubiy jihatdan nemis va o'zbek tillaridagi maqollar adabiy me'yorlarga rioya qilinishi bilan xarakterlanadi.

Nemis tilida maqollarning dastlabki manbalari diniy yozuvlar bo'lganiga qaramasdan, maqollar stilistik planda adabiy uslubdan so'zlashuv uslubigacha bo'lgan ko'plab o'zgarishlarga uchragan. Ko'plab nemis maqollari o'zga madaniyat sohiblari tomonidan nomuqobil qabul qilinadi. Masalan, "Wer Pech hat, bricht den Finger im Arsch ab", "Alte Hunde reiten auf dem Arsch", "Auf fremden Arsch ist gut schlagen", "Ein kleiner Arsch braucht keine großen Hosen", "Man kann nicht alle Stühle mit einem Arsch besetzen", "Alte Fürze stinken", "Aus einem verdrießlichen Arsch fährt kein fröhlicher Furz", "Eigene Fürze riechen angenehm" singari tipdagi maqollar nemis maqollar to'plamlarida juda ko'p uchraydi. Mazkur holat maqollar vazifasining diniy sohadan odatdagi muhitga o'tganidan dalolat beradi.

Qiyoslanuvchi tillar paremik tarkibi to'liq manzarasini yaratish maqsadida o'zbek maqollarining qisqacha grammatik tahliliga ham murojaat qilish joiz. Bu yerda shunday xulosaga kelish mumkinki, maqollar har doim ham an'anaviy grammatik qoidalarga bo'ysunavermaydi.

O'zbek maqollarining grammatik tahlili shundan dalolat beradiki, maqollarda nemis tiliga xos bo'lgan deyarli barcha gap turlari qatanashadi: Wer A sagt, muss auch B sagen – A ni aytgan, B ni ham aytishi kerak; Man kann es nicht allen Leuten recht machen, und wenn man sich die Nase abbeisst – Burningni tishlab olsang ham, hamma odamlarning ko'nglini birdek ololmaysan. Bunday hollarda ikki tildagi umumiylikni ko'rish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbek xalq maqollari, Ikki tomlik, Toshkent, „Fan“ nashriyoti-1987, 1-tom, 323-bet.
2. Janet Sobieski. "Wolfgang Mieder, Professor of German and Folklore". Retrieved 17. February 2009.
3. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2 (71), 64-66.
4. Bazarova, S. S. (2022). Li Xe Jo asarlarida gender tenglik munosabatining ilgari surilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 180-188.
5. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o'ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59.
6. Эшимова, Ш. К. (2022). Personifikatsiya orqali obrazning yaratilishi. *Международный журнал искусство слова*, 5(4).
7. Eshimova, S. K. (2022). Koreys badiiy adabiyotida personifikatsiyaning ifodalanishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 356-364.